



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-mart

VII-7-35-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'RQ-937-sonli Qonunining ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'RQ-937-sonli Qonunining 13- va 27-moddasiga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustdagi "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'RQ-937-sonli Qonuni tegishliligi bo'yicha ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kattaqo'rg'on tumanida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni aniqlash ishlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga;

Kattaqo'rg'on tumanida yer uchastkasiga hamda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishga ko'maklashish bo'yicha jamoatchilik guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamoatchilik guruhlariga:

- yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish chog'ida aniqlangan qonun buzilishlari hollari yuzasidan vakolatli davlat organlari xabardor qilinishini ta'minlaydi;

- yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish asoslari va tartibi yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi;

- avtomatlashtirilgan axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlarni kuzatib boradi, zarur bo'lgan taqdirda, ushbu ma'lumotlar bilan tanishishda fuqarolarga ko'maklashadi.

4. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi deputatlariga:

- ushbu Qonunga muvofiq huquqlar e'tirof etilmagan, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini qaytarish hamda ularda binolar va inshootlar qurish bilan bog'liq qonun buzilishlarini bartaraf etish holati yuzasidan har bir deputat o'zlariga birlashtirilgan mahallalarda doimiy ravishda deputatlik nazoratini o'rnatish.

5. "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi tahririyati (O'.Usmonov), tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov)ga o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish bilan bog'liq ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda tizimli yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (L.Raxmonov) hamda Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Xolova) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 5-martdagi
VII-7-35-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on tumanida o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer
uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni aniqlash
ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman ishchi guruhining
TARKIBI**

№	Familiyasi, ismi va sharifi		Lavozimi
1.	Raxmonov Lutfullo Mamatqulovich	-	Kattaqo'rg'on tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'klamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, ishchi guruhi rahbari
2.	Sharofiddinov Oybekjon Sharofiddin o'g'li	-	Kadastr agentligi Kattaqo'rg'on tumani bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi rahbari o'rinbosari
3.	Ibragimov Farrux Isoqul o'g'li	-	Davlat kadastrlar palatasi Samarqand viloyati boshqarmasining Kattaqo'rg'on tumani filiali boshlig'i, ishchi guruhi kotibi
4.	To'ychiyev Zafar Akmalovich	-	Kattaqo'rg'on tumani prokurorining katta yordamchisi, ishchi guruhi kotibi
5.	Razoqov Shaxboz Ikromjon o'g'li		Tuman Adliya bo'limining bosh maslahatchisi, ishchi guruhi kotibi
6.	Muminov Dilshod Murodullayevich	-	Kattaqo'rg'on tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi
7.	Razzakov Nurbek Yarashevich	-	Kattaqo'rg'on tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi
8.	Alimov Jasur Murodullo o'g'li	-	Kattaqo'rg'on tumani elektr ta'minoti korxonasi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi
9.	Buronov Jamshid Nematovich	-	Kattaqo'rg'on tumani telekommunikatsiya bog'lamasi boshlig'i, ishchi guruhi a'zosi
10.	Qo'ldoshov Oybek	-	"Kattaqo'rg'on tumangaz" gaz ta'minot filiali

	Tolibboyevich		tuman bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi
11.	Sag‘dullayev Ubaydullo Abduqaxxorovich	-	Kattaqo‘rg‘on tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi
12.	Xolmamatov Sherzod Asatullayevich	-	Kattaqo‘rg‘on tumani favqulotda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi
13.	Pirmatov Farxod Karamatullayevich	-	“Samarqand suv ta‘minot” AJ tuman filiali boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi
14.	Saidov San‘atjon Berdishukurovich	-	Kattaqo‘rg‘on tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi
15.	Timirov Murodulla Norovich	-	Kattaqo‘rg‘on tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi boshlig‘i, ishchi guruhi a‘zosi
16.	Islamov Alisher Ashirovich	-	Kattaqo‘rg‘on tumani hokimligi bosh yuristkonsulti, ishchi guruhi a‘zosi

***Izoh:** ishchi guruh a‘zolari boshqa ishga o‘tgan yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 5-martdagi
VII-7-35-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Kattaqo'rg'on tumanida yer uchastkasiga hamda qurilgan binolar va inshootlarga
bo'lgan huquqlarni e'tirof etishga ko'maklashish bo'yicha jamoatchilik guruhi
TARKIBI**

№	Saylov okrugi raqami va nomi	MFY nomi	Deputatning F.I.Sh	MFY raisining F.I.Sh	MFY faolining F.I.Sh
1.	2-Katta-arab	Kumushkent MFY	Xudoyberdiyev Alisher Aktamovich	Raxmatov Orif To'ychiyevich	Xamdamov Odil Hikmatovich
2.	4-Qoradaryo	Qoradaryo MFY	Djurayev Ro'zimurod Bozorovich	Toshov Akbar Raupovich	Ikromov Zafar
3.	5-Polvontepa	Qorako'lcha MFY	Qodirova Marhabo Eshpulotovna	Juraqulova Muborak Ramazonovna	Niyazov Izzat
4.	14-Tavaron	Qirg'iz MFY	Tilovov Saydali Akram o'g'li	Shokirov Muxammadi Rasokulovich	Bozorov O'roqboy
5.	15-Burgan	Jizmonsoy MFY	Nasriddinov Jamshid To'lqinovich	Qulmatov G'ofur Bo'riyevich	Buronov Turaqul Mamasoliyevich
6.	16-Moybuloq	Qoqsoy MFY	Nigmatov Xusniddin Rashidovich	Jomurodov G'ofur Suyundikovich	Yuldashev Mamarayim O'ljayevich
7.	17-Andoq	Qo'shqo'ton MFY	Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich	Xudayberdiyev Baxriddin Xolbekovich	Raxmonov Azamat Amirovich
8.	21-Suv hovuzi	Kumushqirg'oq MFY	Achilov Kamol Rashidovich	Annayev Raxmatullo Boltayevich	Jo'rayev O'rinboy
9.	24-Kattaming	Valijon MFY	Sadriddinov Aziz Aktamovich	Shermamtov Shaxruz Allanazarovich	Jo'rayev Nag'matillo Orziyevich
10.	24-Kattaming	Kattaming MFY	Sadriddinov Aziz Aktamovich	Xudayberdev Aktam	Sultonova Malika Tolibjonovna
11.	10-Yodgorxo'ja	Qiyot MFY	Ubaydullayev Doston Ergash o'g'li	Samadov Vyacheslav Daminovich	O'roqov Xusniddin Asriddinovchi

Izoh: Jamoatchilik guruhi tarkibiga tegishli saylov okrugidan saylangan xalq deputatlari tuman Kengashi deputati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi hamda har yuzta oiladan kamida bir nafardan fuqaro kiritiladi.